

**YANGI O'ZBEKISTON SIYOSIY JARAYONLARIDA YOSHLAR
ISHTIROKINING TUZILMAVIY-FUNKSIONAL TAHLILI**

Xudaynazarov Azamatjon O'rribayevich

Fuqarolik jamiyati va huquq ta'lif kafedrasi tadqiqotchisi
O'zbekiston Milliy Universiteti

Dunyo mamlakatlarida yoshlar davlat hokimiyatini shakllantiruvchi, uning faoliyatida ishtirok etuvchi, ijtimoiy hayot sohalarini rivojlantiruvchi, mamlakatning ichki va tashqi siyosatiga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy strategik subyektga aylandi. Bugungi kunda davlat va jamiyatning o'zaro munosabatlarida yoshlarning roli sezilarli darajada oshib bormoqda. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, jamiyatimiz hayotining ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sohalarini liberallashtirish vazifasi jamiyat va davlat hayotida yoshlarning roliga yangicha yondashuvlarni qaror toptirish va rivojlantirish bugungi kunning bahs mavzusiga aylandi.

Shu o'rinda siyosiy jarayonlarda yoshlar ishtirokini tuzilmaviy-funksional tahlili qilishdan oldin siyosiy jarayon tushunchasiga ta'rif berib ketish maqsadga muvofiq. **Siyosiy jarayon** - bu jamiyatning siyosiy tizimining ishlash usuli; siyosat subyektlarining jami faoliyati, shu bilan siyosiy tizimning ishlashi va rivojlanishini ta'minlaydi [2]. Siyosiy jarayon tushunchasi - biror yo'nalishga ega harakat, holatlarning izchil almashinishi, biror natijaga erishishiga qaratilgan faoliyatlar birligini anglatadi. Shuningdek, siyosiy jarayon tushunchasi o'z navbatida siyosiy holatlar va hodisalarning ichki bog'liqlikka ega zanjir, siyosat subyektlarining hokimiyatga qaratilgan harakatlari o'zaro munosabatlari birligidir [1].

Siyosiy jarayon jamiyatning siyosiy hayoti, siyosiy hokimiyat va davlat hokimiyati bilan bog'liq bo'lgan siyosiy institutlar va siyosat subyektidan iborat bo'lib, yoshlarning siyosiy jarayonlardagi ishtirokini o'rganishda muhim yo'nalish va mezon sifatida qaraladi va tuzilmaviy-funksional jihatdan tahlil etiladi.

Prezident Sh.Mirziyoyevning "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida "Yoshlarga - kelajak bunyodkori" [3] sifatida qaralganligini ta'kidlash zarur. Bu Yangi O'zbekiston strategiyasida yoshlarni eng istiqbolli va mamlakat oldida belgilangan islohotlarni amalga oshirishda siyosatning subyekti sifatida qaralganligi bilan ajralib turadi.

Yoshlar boshqaruvning subyekti va obyekti. Boshqaruvda yoshlarning subyekt sifatida ishtirokiga erishish, ularning davlat hokimiyati va boshqaruviga jalb etishni ta'minlash, siyosiy-huquqiy asoslarini kafolatlash va undan yoshlarning oqilonan foydalanishini taqozo etadi. Boshqaruvda yoshlarning ishtiroki va uning mohiyatini "yoshlar boshqaruv subyekti" tushunchasi ochib beradi. Bunda boshqaruvning yoshlarga, yoshlarning esa boshqaruvga ta'siridagi tarkibiy-funksional bog'liqlikni ko'rish mumkin. Yoshlar ongi, hulq atvori va

faoliyatiga real ta'sir etuvchi, turtki beruvchi, o'zgartiruvchi ta'sir boshqaruv jarayonida namoyon bo'ladi.

Yoshlarni davlat hokimiyati va boshqaruvida ishtirokida davlat hokimiyati va boshqaruvi muhim o'rinni egallaydi. Bu bir tomonidan, davlat boshqaruvi davlat hokimiyatining jamiyat va uning barcha quyisi tizimlariga yo'naltirilganligi, tashkil etilishi va maqsadli ravishda ta'sir o'tkazuvchi davlat hokimiyati va boshqaruvini amalga oshirish mexanizmi ekanligi bilan bog'liq. Yoshlarning davlat boshqaruvi va ijtimoiy-siyosiy hayot sohalarida faol ishtirokini ta'minlash muhim masalalardan biri bo'lib qoladi. Bu yoshlarning ijtimoiy-siyosiy munosabatlarda obyektiv ijtimoiy roli bilan bog'liq. Uning u yoki bu ijtimoiy-siyosiy tizimga integratsiyasi, ular bilan moslashuvchanligi jamiyatda o'zaro hamkorlik munosabatlarning shakllanishi va uning birligi hamda xavfsizligining saqlanib qolishi omili hisoblanadi.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarini ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faolligini aniqlash maqsadida "O'zbekiston yoshlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faolligini yuksaltirish: muammo va yechimlar" mavzusida sotsiologik tadqiqot o'tkazildi. So'rovda O'zbekiston Milliy universiteti, Urganch davlat universiteti va Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabalari ishtirok etdilar.

Respondentlardan "Faolligingizni kim sifatida namoyish etishni xohlardingiz?" so'ralganda 1233 nafari (61,4%) Rahbar, 362 nafari (18%) Tashkilotchi, 156 nafari (7,8%) Ijrochi, 31 nafari (1,5%) Tomoshabin, 162 nafari (8,1%) Targ'ibotchi, 53 nafari (2,6%) Javob berishga qiynalaman, 12 nafari (0,6%) o'zining fikrlarini bildirishdilar [4].

Mazkur so'rvonomada respondentlardan "Sizning fikringizcha, yoshlarni davlat boshqaruvi tizimiga ishga jalgan qilish uchun qanday shart-sharoitlar yaratish zarur? (4 tagacha variantni belgilashingiz mumkin)" so'ralganida ko'pchilik respondentlarni 50,2% i (984 nafari) ta'lim muassasa bilan davlat boshqaruvida ishlashni xohlaydigan yoshlarni aniqlash bo'yicha yaqin hamkorlikni ta'minlash javob variantlarini belgilashgan. Qolgan javob variantlariga respondentlar quyidagicha belgilashgan: 739 nafari (37,7%) yoshlarni ishga joylashish bo'yicha ochiq tanlovlarni tashkil etish, 732 nafari (37,3%) davlat boshqaruvidagi yoshlarga ularning ehtiyojlari va ko'nikmalari doirasida ish haqi berish, 732 nafari (37,3%) byurokratiya va korruptsiyani oldini olish, 731 nafari (37,3%) stajirovka o'tash va kasbi bo'yicha o'qish imkoniyatlarini berish, 558 nafari (28,5%) davlat boshqaruvida ishlashni xohlaydigan yoshlarni aniqlash bo'yicha yoshlar tashkilotlari bilan bevosita hamkorlikni ta'minlash, 330 nafari (16,8%) mintaqaviy darajadagi davlat tuzilmalarida yangi ish o'rinalarini yaratish zarur, 280 nafari (14,3%) xizmatda mansab o'sish imkoniyatlarini berish, 90 nafari (4,6%) Javob berishga qiynalaman degan javob berishgan.

Yana shuni ta'kidlash kerakki, mazkur so'rvonomada respondentlardan "O'zingizni davlat boshqaruvida ishlashni xohlashingiz sababini ayting? (4 tagacha variantni belgilashingiz

mumkin)" so'ralganda, ular quyidagicha javob variantlarini belgilashdilar: 1374 nafari (69,6%) mamlakat va jamiyatni rivojlantirishga o'z ulushini qo'shish imkoniyati, 763 nafari (38,7%) muhim boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishtirok etish imkoniyati, 589 nafari (29,9%) siyosiy partiylar ishtirok etish orqali siyosiy boshqaruv sohalarida faol qatnashish imkoniyatining mavjudligi, 501 nafari (25,4%) davlat xizmatchilari toifasiga mansub bo'lish imkoniyati, 445 nafari (22,6%) davlat boshqaruvida ish haqi va rag'batlantirishlarning yuqori darajada ekanligi, 324 nafari (16,4%) xizmatda mansab o'sish imkoniyati, 300 nafari (15,2%) shaxsiy manfaatlarni amalga oshirish imkoniyati, 140 nafari (7,1%) javob berishga qiynalaman va 19 nafari (1%) o'zining fikrlarini bildirishgan [4].

2019-2022 yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bevosita mamlakat siyosiy tizimi va davlat boshqaruvi bilan bog'liq ma'ruzalarida "yoshlar" tushunchasining qo'llanishi bo'yicha [6] hamda mamlakat qonunchiligidida "yoshlar" tushunchasining aks etish darajasini aniqlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida (www.lex.uz) [5] kontent-tahlil o'tkazildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning davlat boshqaruvi bilan bog'liq ma'ruzalarida "yoshlar" atamasining qo'llanishi (kontent-tahlil) tahlili

Nº	Ma'ruzalar nomi	"yoshlar" atamasining qo'llanilishi (marotaba)
1.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020 yil 24 yanvar)	20
2.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2020 yil 29 dekabr)	31
3.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi (2020 yil 30 iyun)	18
4.	Yangi O'zbekiston strategiyasi (2021 yil)	172
5.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Yoshlar kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdag'i ma'ruzasi (2021 yil 30 iyun)	95
6.	2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi	74
7.	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi (2022 yil 20 dekabr)	11

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, 2019-2022 yillarda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bevosita mamlakat siyosiy tizimi bilan bog'liq ma'ruzalarida "yoshlar" tushunchasi 421 marotaba ishlatilgan. Shuningdek, 2017-2023 yillarda "yoshlar" atamasi qo'llangan me'yoriy-huquqiy hujjatlarda 2023 yil 1 aprel holatiga ko'ra 136 tani tashkil qilmoqda.

Yangi O‘zbekiston siyosiy jarayonlarida yoshlar ishtirokining tuzilmaviy-funksional tahlil qilindi. Tahlil natijalariga ko‘ra quyidagicha xulosa qilindi.

Tuzilmaviy tahlil

Yoshlar tarkibi;
Yosh senzi;
Siyosiy yosh senzi;
Yoshlarning hududiy jihatdan soni;
Boshqaruv tizimidagi ulushi.

Funksional tahlil

Yoshlarga oid davlat siyosati;
Yoshlar qanoti;
Yoshlar - kelajagimiz jamg'armasi;
Yoshlar daftari;
Yoshlar portal;
Yoshlar parlamenti;
Yoshlar Akademiyasi;
Besh tashabbus;
Yoshlar balansi;
Yoshlar siyosati va sport vazirligi.

Xulosa qilib aytganda, “yoshlar” har bir jamiyat ijtimoiy va aholi tarkibida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan demografik qatlama hisoblanadi. Yoshlar ijtimoiy-siyosiy hayotning barcha sohalari bilan uzviy aloqador bo‘lgan strategik subyektdir. Yoshlar davlat hokimiysi va boshqaruvida, o‘ziga xos ijtimoiy tuzilishga, tarkibga ega bo‘lgan, uzlusiz dinamik tarzda yangilanib turadigan faol sotsial qatlamdir. **Ikkinchidan**, yoshlar tarkibi va tuzilishi jihatidan xilma xil bo‘lgan, sotsial qatlama sifatida hokimiyatga ta’sir ko‘rsatish resursiga ega. Yoshlar strategik subyekt sifatida ularning faoliyati boshqaruv sohalari bilan uzviy bog‘liq. Boshqarish tushunchasi o‘ziga xos mazmunga ega bo‘lib, uni amalga oshirish bo‘yicha turli xil qarashlar mavjud. Bunday qarashlarni yoshlar, yoshlarning boshqaruvdagi ishtiroki, yoshlarning tarkibi va ularning boshqaruvdagi ishtiroki bilan bog‘liq yo‘nalishlarda ham ko‘rish mumkin. **Uchinchidan**, yoshlar tushunchasiga yondoshishda uning tarkibiy tuzilishi xilma xilligi nuqtai nazaridan yondoshganda uzlusiz o‘zgarish va yangilanib borish xususiyatiga ega. Yoshlarning yosh xususiyatlari muhim strategik subyekt sifatida davlat hokimiysi va boshqaruvidagi demokratik o‘zgarishlar bilan bog‘liq holda yoshlarni davlat hokimiysi va

boshqaruviga jalb etishda yangicha yondoshuvni va yoshlarni davlat hokimiyati boshqaruv bo‘g‘inlarida kengroq foydalanish strategiyasi boshqaruvda yoshlarga xos bo‘lgan yangicha qarash, siyosiy madaniy tafakkur, boshqaruvni yangicha tashkil etish va undagi ayrim yosh bilan bog‘liq bo‘lgan salbiy holatlarni oldini olishga xizmat qiladi. Islohotlarni amalga oshirishga keng demokratik imkoniyat yaratib beradi. davlat hokimiyati va boshqaruvi tizimida yoshlarning ishtiroki va davlat siyosatida unga alohida ahamiyat berish strategik xususiyatga ega. Bu mamlakat taraqqiyotining istiqbolini belgilab beruvchi ko‘rsatgichdir. **To‘rtinchidan**, yoshlarning hokimiyat, davlat hokimiyati va boshqaruviga ta’sir ko‘rsatish jarayoni dinamik jarayon bo‘lib, doimo yangilanib boradi. Bu yoshlarning yoshi bilan bog‘liq bo‘lgan tabiiy jarayondir. Yoshlar davlat hokimiyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatish imkoniyatiga, bilvosita 18 yoshdan ega bo‘ladi. Bu ularning saylash huquqi bilan bog‘liq bo‘lib, davlat hokimiyatini shakllantirishda bevosita ishtirok etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Bituraev O’B. Siyosatshunoslikka kirish (o’quv qo’llanma) Toshkent: «Barkamol fayz media», 2017, 70-71 b.
2. https://ru.wikipedia.org/wiki/Политический_процесс
3. Mirziyoyev SH.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent. “O‘zbekiston”, 2021. – 464 b.
4. “O‘zbekiston yoshlaringning ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda faolligini yuksaltirish: muammo va yechimlar” mavzusida sotsiologik tadqiqot natijalari. https://www.researchgate.net/publication/369913300_Uzbekiston_eslarining_iztimoj-siesij_zaraenlarda_faolligini_uksaltiris_muammo_va_ecimlar_mavzusida_sociologik_surovnoma
5. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi www.lex.uz
6. Mazkur kontent-tahlilda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning bevosita mamlakat siyosiy tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan ma’ruzalarini ajratib olingan hamda “yoshlar” so‘zi asos qilingan.
7. Эргашев И., Худайназаров А. У. ЎЗБЕКИСТОН ЖАМИЯТИ БОШҚАРУВИДА ЁШЛАР ФАОЛЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ МАҶНАВИЙ ОМИЛЛАРИ //Журнал Социальных Исследований. – 2020. – Т. 3. – №. 5.
8. Худайназаров А. У. Роль реформ в повышении активности молодежи узбекистана в социально-политических процессах //Экономика и социум. – 2021. – №. 4-2 (83). – С. 661-665.

-
9. Urinbaevich K. A. Factors for Increasing the Activity of Youth of Uzbekistan in the Field of Science and Education //Middle East Journal of Applied Science & Technology. – 2022. – T. 5. – №. 1. – C. 33-37.
 10. Abdurakhmonovich S. B., Urinbaevich K. A. The Role of Reading in Increasing the Activity of Youth in Socio-Political Processes //Middle European Scientific Bulletin. – 2022. – T. 23. – C. 222.
 11. Urinbaevich K. A. YOUTH OF UZBEKISTAN AS A SUBJECT OF CHANGES IN POLITICAL PROCESSES //Open Access Repository. – 2023. – T. 4. – №. 3. – C. 1455-1464.